

Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!

IJODIY PARVOZ

2022-yil sentabr № 9 (113) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz

O'zbekiston davlat
san'at
va madaniyat
institutining
ma'naviy-ma'rifiy,
ilmiy, ijtimoiy
gazetasи

MUSTAQILLIK – ENG ULUG' NE'MAT



O'zbekiston mustaqilligining o'ttiz bir yillik
to'yi yurtdoshlarimiz tomonidan katta ishtiyoyq
hamda yuqori kayfiyatda kutib olindi. "Yangi
O'zbekistonda el aziz, inson aziz" bosh g'oyasi
asosida tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy
tadbirlar hamda targ'ibot-tashviqot ishlari
o'tkazilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat
Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi davlat
mustaqilligining o'ttiz bir yillik bayramiga
tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada
o'tkazish to'g'risida"gi Qarorni imzoladi.
Erksevar xalqimiz uchun mustaqillik ulug' va
qadrlı bayram.

Mustaqillikka ne-ne jafolardan so'ng, sabr-matonat bilan
erishildi. Bugun O'zbekistonda el aziz, inson aziz bo'ldi.
"Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoraları xalqimizga
xizmat qilishi kerak", degan tamoyil asosiy talabaga aylandi.
Mamlakatimiz pandemiya va global inqirozning salbiy
ta'sirlariga qaramasdan, erkin, obod va farovon hayot qurish
yo'lidan dadil oлg'a bormoqda. Sanoat tarmoqlari va hududlar
rivoj ijtimoiy masalalarni hal etish imkonini bermoqda.

Milliy qadriyatlarimizda alohida o'rın tutadigan avlodlar
o'rtasidagi an'analar davomiyligini saqlash, keksalarining
hayotini yanada mazmunli qilish e'tiborda. Yoshlar va
xotin-qizlarning o'qishi, kasb egallashi, qobiliyatini yuzaga
chiqarishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Yaqinda
Hindistonda bo'lib o'tgan jahon shaxmat olimpiadasida
tema jamoamiz tarixda birinchi marta Olimpiya championi
bo'lgani butun xalqimizni quvontirdi.

Ibrohim YO'LDOSHEV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti rektori,
filologiya fanlari doktori, professor

Bugungi kunda mamlakatimiz milliy tiklanish davridan
milliy yuksalish davriga o'tmoqda. Prezidentimizning
shaxsan tashabbusi bilan "Harakatlar strategiyasidan
– Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida ishlab
chiqilgan yettiita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022-2026
– yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi ishlab
chiqildi va u hayotga tadbiq etildi. Prezidentimiz tabrik
so'zida davlatimizning tavsimini bunday izohladi: "Yangi
O'zbekiston har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash
maqsadida, davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng
imkoniyatlar beradigan, odamlar o'z muammolari haqida
ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birligida harakat
qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo'lgan, hamma uchun
adolatni so'zsiz ta'minlash imkoniyatini beradigan hamda
fuqarolari ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida teng
bo'lgan, tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar
yaratilgan davlatdir".

Yurtimizda bo'layotgan ishlarga nazar tashlansa, chindan
ham bularning ijobatini ko'rish mumkin. Shu bilan birga,
davlatimiz rahbari o'z nutqida bundan keyingi beshta asosiy
yo'nalishni ko'rsatib o'tdi.

Birinchisi – ta'lim sohasida eng qulay sharoitlar yaratish.
Buning uchun maktablarning o'quv dasturlari, o'qitish uslubi,
darsliklar mazmuni tubdan qayta ko'rib chiqiladi, maktablar
qurish, ustoz va murabbiylarning mashaqqatlari
mehnatini rag'batlantirish davom ettiriladi.

Donolar bisotidan

Kundalik rizq ko'p,
qayg'uraverma. Shu bilan birga
mol orttiraman, deb o'zingni ko'p
qiynayverma. Chunki har kim o'z
nasibasidan ortiq bitta ham don
yeya olmaydi.

Abu Ali Ibn SINO

Odamlar suratini
bezatsa, sen
siyratingni beza.
Odamlar boshqalar
aybidan so'z ochsa, sen
o'z qusuringni o'yla.

Jaloliddin RUMIY

Sizning birinchi burchingiz
– o'zingizni baxtli qilish.
Agar o'zingiz baxtli
bo'lsangiz, boshqalarni ham
baxtli qila olasiz.

Lyudvig Andreas
FEYERBAX

ijodiyparvozgazetasi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 5-sentabr kuni yangi o'quv yili boshlandi. Bugun oliygohda bayram dasturi o'tkazildi, shundan so'ng o'quv binolarida professor-o'qituvchilar va olimlar tomonidan birinchi bosqich talabalariga mustaqillik darsi tashkil etildi. Shu jumladan, o'quv teatrda institut rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev tomonidan birinchi bosqich talabalariga mustaqillik darsi o'tkazildi:

Mustaqillik darsi

– Bugungi kunda talaba bo'lish
barchaga ham nasib etavermaydi.
Mening o'zim oliygohga kirish
uchun qancha mashaqqatlarni bosh-
dan kechirganman. Avvallari tanish-
bilishchilik degan unsurlar yuqori
edi. Hozirda esa unday emas,
shunga qaramay, ko'p yoshlar ijodiy
imtihonlarda past ball to'plashdi,
bunga sabab, ular o'qimay qo'ygan.
Biz ijodiy imtihonlarni shaffofligini
ta'minlash maqsadida, har bir xonaga
ikkitanan kamera o'rnatdik. Ular orqali
ota-onalar imtihonlarni to'g'ridan-
to'g'ri efirda kuzatib borishdi. Agar
iste'dodingiz bo'lsa, istalgan joyga

o'qishga kirishingiz mumkin. G'afur
G'ulom bejiz:

Taqdirni qo'l bilan yaraturn odam,

G'oyibdan kelajak baxt bir afsona!

– deya ta'kidlamagan. Agarda o'qishga
kirgan taqdiringizda ham ilm olishda
davom etmasangiz, hayotda o'z
o'rimingizni topolmasliging mumkin.
Hozirdan o'z oldingizga maqsad
qo'ying. Mana misol, Is'hoqxon Ibrat
oddiy qishloq farzandi bo'la turib,
to'qqiz tilni yod bilgan hamda dunyo
kezgan. Alisher Navoiy bobomiz
"Muhokamat ul-lug'atayn"

asarida:

2

Do'stlik rishtasi

Joriy yilning 9-sentyabr kuni Xalqaro Turkiya madaniyat tashkiloti (TURKSOY) bosh kotibi delegatsiyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga tashrif buyurdi. Tashrifdan ko'zlangan maqsad, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda TURKSOY o'rtasida o'zaro ilmiy-amaliy hamkorlik memorandumini imzolash, qolaversa, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti tomonidan nashrha tayyorlangan "Muhammad Yusuf. Saylanma" ("Muhammed Yusuf. Seçmeler") kitobining taqdimoti
marosimini o'tkazish edi.

2



Oradan yillar o'tdi, falakning gardishi bilan bir kuni Muhammad Yusufning ashaddiy muxlisi bo'lmish kosonsoylik A'zamjon hoji Mamajonov bilan ushbu qurish asosida, anchadan beri xayolimni band etib kelayotgan ushbu savolga javob topganday bo'ldim.

– Siz to'g'ri o'ylagansiz, – dedi Muhammad Yusuf oilasining yaqin kishisiga aylanib qolgan A'zamjon hojiga, – aslida o'sha she'rni Muhammad Yusuf opasi Gulchehra opaga bag'iishlab yozgan. Agar yo'llimiz tushib, opaning uyiga o'tsak, she'rning yozilish tarixi haqida batafsil bilib olasiz.

Ittifoqo, Yangiyo'rg'on tumanida ijodiy-madaniy ishlari bo'yicha targ'ibotchilarning hududi o'quv yig'ini o'tkaziladigan bo'lib qoldi. Yig'inga Chortoq, Yangiyo'rg'on va kosonsoylik targ'ibotchilar taklif qilingandi. Jo'nash oldidan A'zamjon hojiga Yangiyo'rg'onga o'quv yig'iniga ketayotganligimni aytdim. A'zamjon yig'ilishdan xabar borligini, lekin tobi yo'qligi sababli borolmasligini bildirib, urz so'radi. Biroq o'quv mashg'uloti boshlanishiga sanoqli daqiqalar qolganda, u birdan zalga kirib keldi.

4

Odamlar suratini
bezatsa, sen
siyratingni beza.
Odamlar boshqalar
aybidan so'z ochsa, sen
o'z qusuringni o'yla.

Kundalik rizq ko'p,
qayg'uraverma. Shu bilan birga
mol orttiraman, deb o'zingni ko'p
qiynayverma. Chunki har kim o'z
nasibasidan ortiq bitta ham don
yeya olmaydi.

Abu Ali Ibn SINO

Sizning birinchi burchingiz
– o'zingizni baxtli qilish.
Agar o'zingiz baxtli
bo'lsangiz, boshqalarni ham
baxtli qila olasiz.

Lyudvig Andreas
FEYERBAX

MUSTAQILLIK – ENG ULUG‘ NE’MAT

Ikkinchisi – sud tizimining mustaqilligini mustahkamlash. Sudalar ishiga har qanday aralashuv keskin jazolanadi, ularning xavotirsiz ishlashi uchun barcha zarur sharoitlar yaratiladi.

Uchinchisi – tadbirkorlikni rivojlantirish. Buning uchun xususiy mulk va tadbirkorlikka xalaqit berayotgan barcha to’siqlar bartaraf etiladi. Davlat boshqaruvi isloh qilinib, iqtisodiyotda davlat ishtiroti keskin kamaytiriladi.

To‘rtinchisi – sog‘liqni saqlash tizimida aholiga sifatli va malakali tibbiy xizmatlardan foydalanan imkoniyati kengaytiriladi. Barcha hududlarda shoshilinch tibbiy yordam qamrovi oshirilib, odamlarga yanada yaqinlashtiriladi.

Beshinchisi – ichimlik suvi ta’mintini yaxshilash. Buning uchun sohaga jalg qilinayotgan investitsiyalar hajmi keskin ko‘paytiriladi. Muammoli hududlarga toza ichimlik suvini yetkazish va sifatini yaxshilash bo‘yicha alohida dasturlar amalga oshiriladi.

Mard va mehnatsevar xalqimiz ko‘magida bu vazifalar samarali bajarilishi, yangilanayotgan Konstitusiyamiz bu yo‘lda mustahkam huquqiy asos bo‘lishi ta’kidlandi: “Bugun biz o‘z oldimizga ulug‘vor va yuksak maqsadlarni qo‘ymoqdamiz. Ana shunday ulkan marrallarga yetish yo‘lida ko‘p millatlari el-yurtumiz yanada birlashib, yagona ahil oila, yagona xalq bo‘lib, astoydil harakat qilmoqda. Bu – biz erishayotgan barcha yutuqlarimizning mustahkam garovi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz”, – deydi Prezident o‘z nutqida.

Yurtboshimizning “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz bir yilligi munosabati bilan fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, adabiyot, madaniyat, san’at sohalari va ommaviy axborot vositalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti professori Sayyora To‘ychiyeva “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan sohada samarali faoliyat olib borayotgan institutning bir qator professor-o‘qituvchilar “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak-nishoni bilan taqdirlandi. Institut ilmий ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori Sobirjon Jumayev, “Kutubxonaxborot faoliyat” dekanasi Soyibnazar Davlatov, “Teatr san’ati” fakulteti, “Sahna nutqi” kafedrasi professori Go‘zal Xoliqulova, “Kino, televideniye va radio san’ati fakulteti” dekanasi, dotsent Anvar Qurbonov, “Xalq ijodiyoti” fakulteti “Madaniyat va san’at menejmenti” kafedrasi dotsent Vahob Rustamovlarning mehnati yuksak e’tirofga loyiq topilganidan benihoya mammun bo‘ldim. Bu e’tirof va mukofotlar institutimizning yutug‘idir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-martdagi “Nuroniyalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-167-son qarorining 11-bandida belgilangan vazifalar bo‘yicha 25-martda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida doimiy ravishda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash maqsadida, hayotiy tajribaga ega bo‘lgan nuroniyalar bilan ochiq davra suhbatlari bo‘lib o‘tdi.

Bundan tashqari O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti talabalari o‘rtasida parvarishga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz yashovchi keksalarmi ma’naviyruhiy hamda psixologik qo‘llab-quvvatlash maqsadida, malakali psixologlar, faol yoshlardan iborat bo‘lgan volontyorlik guruhlari tashkil qilindi. Volontyorylik guruhlari tomonidan har ikki oyda kamida bir marotaba parvarishga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalarning holidan xabar olimmoqda. Institut talabalari bilan otalar choyxonasida turli xil tadbirlar amalga oshirilmoqda. Institutga biriktilgan barcha mahallalarda institut professor-o‘qituvchilarini va talabalari tomonidan mahalladagi keksalarga bag‘ishlab, turli xil ko‘ngilochar konsertlar taqdirmi qilib kelinmoqda.

Institutda tahsil olayotgan har bir talaba biz uchun o‘z farzandimizdek aziz. Ularning holdi, issiqsovug‘idan xabar olish otalik va onalik burchimiz, deb bilaman. Ayniqsa, musofirchilikda tahsil olayotgan talaba ham ruhan, ham ma’nana yordamga muhtoj bo‘ladi. Professor-o‘qituvchilar, ustoz-murabbiylar, ishechi xodimlar talabalar turar joyiga tashrif buyurib, u yerdagi shart-sharoitlar bilan tanishyapmiz, o‘rganyapmiz, imkon qadar yordam qo‘lini uzatyapmiz. Har bir inson bir ko‘ngil. Maqsadimiz, ko‘ngilni obod etish. Talaba – yosh niholni chiroyli parvarish qilish. Ularni nurafshon manzil sari yetaklash. “Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz” shiori ostida xayrlari va barokatli ishlarni amalga oshirish.

Albatta, mustaqillik, tinchlik ortidandir. Uni qadralash, ulug‘lash esa barchamiz uchun ham qarz, ham farz. Shunday ekan, ana shu ikki ulug‘ ne’matni ko‘z qorchig‘imizdek asraylik! Bayramlar ortidan bayramlar ularaversin.

Mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin!

Mustaqillik darsi

1 “O‘zbeklar zakiy insonlari, til bilish qobiliyati kuchli. Ular boshqa tilda so‘zlasa ham o‘zga millat vakili ekanligini birov payqamaydi”, – deb yozgan. Forobiy: “Ilm bilan shug‘ullanmoq farog‘atlidir”, – deya ta’kidlagan. Kelgusida yetuk mutaxassis bo‘lamani desangiz, hozirdan harakat qilishingiz lozim.

Vatan – sajdagoh kabi muqaddas! Biz insonlar yuragiga malham bo‘ladigan soha vakillarimiz. Buning uchun ko‘proq o‘qishimiz kerak. Kutubxonamizdan nodir asarlar o‘rin oлgan. Qolaversa, yotoqxonada ham kutubxona tashkil etganimiz. Kitob o‘qigan talabaga ko‘plab imkoniyatlar yaratilgan. Jumladan, ular bepul qahva ichishlari, biz keltirgan velosipedlarda institut hududida sayr qilishi mumkin. Qolaversa, eng ko‘p kitob o‘qigan talabalar bir oy davomida institut hududidagi basseyngan bepul tashrif buyurish imkoniyatiga ega. Yotoqxonalarning narxini oshirmadik. Oylik to‘lov 225 ming so‘mligicha qoldi.

O‘z muhibrimiz

Do‘stlik rishtasi



Dastlab O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo‘ldoshev so‘zga chiqib, TURKSOYning turkiy dunyo madaniyati, jumladan, o‘zbek madaniyatini tanitishda hissasi yuqori ekanligini ayтиб o‘tdi. Shu bilan birga, institut rektori sevimli shoirimiz Muhammad Yusufning “Saylanma”si Turksoy bilan hamkorlikda chiqarilganligini ham alohida ta’kidladi. TURKSOY rahbari Sultan Rayev esa O‘zbekistonning turkiy mamalakatlar madaniyatida qo‘shgan o‘rnii haqida, qolaversa, so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodi to‘g‘risida iliq fikrlarni bildirdi. Shuningdek,

TURKSOY rahbarining o‘rinbosari Bilol Chakirji ham so‘zga chiqib, xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti tomonidan nashrha tayyorlangan “Muhammad Yusuf. Saylanma” kitobi to‘g‘risida fikr bildirdi hamda Muhammad Yusuf hayoti va ijodi haqida alohida to‘xtalib o‘tdi.

Tashrif davomida ikki tomon o‘rtasida xalqaro memorandum imzolandi. Turkiy dunyo oliy ta’lim muassasalarini talabalarining teatr festivalini kelgusi yilning may oyida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida o‘tkazishga kelishib olindi.

O‘zDSMI matbuot xizmati

Mukofot muborak!

So‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi madaniyat va san’at sohasiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish maqsadida bir qator muhim Farmon va Qarorlar qabul qilinib, hukumat tomonidan zarur hujjatlar ijroga yo‘naltirilmoqda.

**Muhtaram Prezidentimiz
Shavkat Mirziyoev tomonidan
“O‘zbekiston Respublikasi
mustaqilligining o‘ttiz bir yilligi
munosabati bilan fan, ta’lim,
sog‘liqni saqlash, sport, adabiyot,
madaniyat, san’at sohalari va
ommaviy axborot vositalari
xodimlaridan bir guruhini
mukofotlash to‘g‘risida”gi
Farmonni imzolaniши ham**

**O‘zbekiston davlat san’at va
madaniyat institutining fidoiy
jamoasini behad quvonotirib
yubordi. Madaniyat va san’at
sohasi vakillari, ijod ahli tomonidan
juda katta taassurotlar bilan
qarshi olindi. Sababi, ushu
yuksak mukofotlar bilan ta’lim
dargohimizda ko‘p yillardan buyon
ishlab kelayotgan, yoshlarimizni
ona yurtga muhabbat va sadoqat,**

**umuminsoniy qadriyatlarga
hurmat ruhida tarbiyalash yo‘lida
tinimsiz xizmat qilayotgan, o‘zinig
samarali mehnati bilan yurtimiz
taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib
kelayotgan jonkuyar ustozlarimiz
ham taqdirlandi.**

**Mana shunday nufuzli davlat
mukofotlari bilan taqdirlangan
Siz aziz ustoz pedagoglarni institut
jamoasi nomidan muborakbod
etamiz! Sizlarga uzoq umr, sihat-
salomatlik, olibavli xotirjamlik hamda
ulkun ijodiy muvaffaqiyatlar tilayimiz!**

**Xonadoningizdan qut-barokat,
qalbingizdan quvonch, yuzingizdan
tabassum arimasin!**



Yusupova Venera Ismetovna
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Qo‘irichoq teatri san’ati” kafedrasi dotsenti “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi



To‘ychiyeva Sayyora Suyarqulovna
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori, yozuvchilar uyushmasi azosi, shoiri “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi



Magdiyev Bahodir Kabul-Kariyevich
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Sahna nutqi” kafedrasi v.b dotsenti, “ORIAT DONO” radiostoshboshlovchisi “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi



Niyozov Soyib Navro‘zovich
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Milliy qo‘shiqchilik” kafedrasi v.b dotsenti, O‘zbekiston xalq hofizi Toshkent viloyati “Maqom” ansambl rahbari “Mehnat shuxrati” ordeni bilan taqdirlandi

Kichik o'zgarish orqali katta natijalarga erishamiz

Jeyms Klirning "Atom odatlar" kitobi haqida

Yozgi ta'til davomida bir nechta shaxsiy rivojlanishga oid kitoblarni o'qib chiqdim. Lekin ularning ichida menga eng kuchli ta'sir qilgani bu – Jeyms Klirning "Atom odatlar" kitobi bo'ldi. Ushbu kitob menga odatlar qanday shakllanishi, arzimas bo'lib tuyulgan kichik odatlar katta maqsadlarni amalga oshirish uchun asosiy omil bo'lishini, uzoq vaqt davom etadigan odatlarning tarkibi bo'lgan ishoralar, kuchli ishtiyoy, javob reaksiysi, mukofotlar zanjirini o'rgatdi. O'qigan va uqqanlarimni siz aziz mushtariylar bilan ham bo'lishmoqchiman.

Atom odatlar nima? Atom – zarra, odat – biror holatga javoban o'yamasdan avtomatik bajariladigan harakat. Masalan, xona qorong'i, o'yamasdan chiroq qidiramiz; telefon yoki telegram signal beradi, avtomatik xabarni ochamiz.

Odat sodir bo'lisi 4 qismidan iborat:

- Ishora;
- Kuchli ishtiyoy;
- Javob reaksiysi;
- Mukofot

Misol uchun, telefon jiringlaydi (ishora), kim xabar yozganini bilishni istaysiz (ishtiyoy), telefonni olib, xabarni o'qiysiz (javob reaksiya), siz xabarni o'qib, nima yozilganini bilib olasiz (mukofot). Natijada, telefonni olish uni jiringlashiga bog'lanadi. Har safar telefon jiringlaganda, yuqoridaq harakatni o'yamasdan amalga oshiramiz.

Biror harakatni odatga aylantirishning foydasi nimada?

Odatga aylangan harakatni amalga oshirish uchun ong deyarli ishtiroy etmaydi. Ishora paydo bo'lisi bilan harakatga tushamiz. Bu esa aql kuchimizni muhimroq masalalarga ajaratishga imkon beradi. Jarroh ko'p takrorlash natijasida, qanday qilib terini kesishni o'ylamaydi. Qo'l xotirasni skalper berilishi bilan avtomatik ishga tushadi, natijada, jarroh kesilish jarayonida kelib chiqqadigan holatlarga diqqatini qaratishi mumkin. Yoki erta tongda turishni odatga aylantirgan kishi har kuni "bugun tursammi yoki uxlasammi", degan savollar bilan mashg'ul bo'lmaydi, shunchaki ishora bo'lisi bilan tanamiz xotirada yozilgan harakatni bajaradi.

Har kungi kichik odatlar murakkab foiz shaklida o'sib, buyuk natijalarga olib keladi va haqiqiyoq o'zgarishga sabab bo'ladi. Maqsadlarimizga yetish uchun, avvalo, odatlar va jarayonlardan iborat tizim qurishimiz kerak. Biror marrani emas, tizimni yaxshi ko'rish muhimroq (yugurish musobaqasida g'olib bo'lish – maqsad, sog'lom turmush tarzi va tizimdir). Yaxshi yoki yomon bo'lsin, odatlar paydo bo'lisi vaqt talab qiladi. Shu sababli, ko'p kishilar yarim yo'lda o'z maqsadlaridan voz kechadi. Har kim yaxshi odatlarni to'g'ri yo'nalish asosida shakllantirishi, yomon odatlardan voz kechishi mumkin.

Taassurotlar


Kitob kutganimdek yaxshi yozilgan. Har doim takrorlaydigan odatlarni qayta ko'rib chiqishni o'rgatdi. Shu vaqtga qadar nima uchun o'zim xohlagan odatlarni shakllantiraolmaganim, yomon odatlarni tark etaolmaganim sabablarini, diqqatni maqsadga emas, tizimlarga qaratish muhimligini tushundim. Kichik odatlarni shakllantirish orqali katta yoki kichik bo'lsin, har qanday maqsadimizga erishaolishimizni angladim.

Hayotimda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?

- Kitob kundalik hayotimga qayta nazar tashlashga, foydali odatlarni qo'shishga yordam berdi (har kuni erta turish, yugurish, kamida 20 bet kitob o'qish odatlarini shakllantirishni boshladim);

- Bundan buyon biror xulq-atvorni o'zgartirmoqchi yoki shakllantirmoqchi bo'lsam, diqqatimni natijaga emas, kimligimi belgilab beradigan tizimga qarataman. Tizim maqsaddan ko'ra muhimroq. Marafonda g'olib bo'lishni maqsad qilgan kishi yutgach, qayta yugurishga ishtiyoyini yo'qtadi, ammo yugurishni hayotining bir qismiga aylantirgan kishi marafon yutsa, yutmasa yuguraveradi.

- Biror odatni vaqtida, yoqmasa ham bajarish muhimligini angladim. Hech qanday o'zgarish bo'imsa-da, odatlar zanjirini yo'qtmaslik uchun baribir bajarish kerkaligini tushundim.



• Kitobni o'qib, avval e'tibor bermagan ko'p odatlarimni his qilyapman. Har qanday takrorlanadigan (yaxshi yoki yomon) kichik harakat, vaqt o'tib odatga aylanadi va foydamizga yoki zararimiza ishlaydi.

Kitobdan iqtiboslar

Maqsadlar – erishilmoxchi bo'lgan yakuniy natija. Tizim esa (jarayon davomida) natijaga olib boradigan jarayonlardir.

Vaqt – muvaffaqiyat va mag'lubiyat o'rtasidagi chegara. Siz qaysi tomonga harakatlansangiz, o'sha tomonga yaqinlashaverasiz. Yaxshi odatlar vaqtini sizning ittifoqdoshingizga aylantiradi. Yomon odatlar vaqtini dushmanga aylantiradi.

Yangi odat bosholayotganda uni imkon qadar oson qilish muhim, shunda mukammal sharoit bo'lmaganda ham qilmaslik uchun bahona qolmaydi;

Har bir harakatingiz o'zingiz orzu qiladigan kishi bo'lismi uchun berilgan ovozdir ("Every action you take is a vote for the person you wish to become").

Nimani takrorlasangiz, shunga ega bo'lasiz ("You get what you repeat").

Maqsadning mohiyati o'yinda g'olib bo'lismi, tizimning mohiyati esa, o'yinda davom etishdir (g'olib bo'lsa, bo'lmasa) ("The purpose of setting goals is to win the game. The purpose of building systems is to continue playing the game").

Yaxshi odatni shakllantirish, yomon odatni tark qilish birdaniga sodir bo'lmaydi. Odat shakllanishi vaqt talab qiladi. Shu bois ko'pchilik yarim yo'lda chekinadilar

Vaqt muvaffaqiyat va mag'lubiyat o'rtasidagi chegaradir. Siz qaysi tomonga harakatlansangiz, o'sha tomonga yaqinlashaverasiz. Yaxshi odatlar vaqtini sizning ittifoqdoshingizga aylantiradi. Yomon odatlar vaqtini dushmanga aylantiradi.

Agar yaxshi odatni shakllantirish va yoki yomon odatni tark qilishga qiynalayotgan bo'lsangiz, bu sizning matonatsiz, chidamsiz ekanligingizdan emas, balki ayni vaqtda latent potensial vodiysi (yashirin salohiyat vodiysi) ekanligingizdan dalolat beradi.

Latent potensial vodiysi – odat shakllanishi davomida tashqi natija ko'rinnaydigan davr. Muzlatgichdan muzni olganimizza, biroz muddat u erimasdan turadi, garchi harorat o'zgarmasa ham birozdan so'ng erishni bosholaydi. Ana shu muzlamasdan turgan vaqt – "latent potensial vodiysi", deyiladi. Sizning mehnatingiz samarasiz ketgani yo'q, shunchaki keyinroq katta natija ko'rsatish uchun potensial yig'ilmoqda, xolos. Kitobdan shu haqida jamoat faoli Jeykob Riisdan iqtibos bor:

"Hech narsa oldinga siljimayotgandek tuyulsa, men borib, toshni bolg'a bilan urayotgan toshkesuvchiga qarayman, dastlabki yuz zarbada yoriglar ko'rinnaydi. Biroq, bir yuz birinchi zarbada u ikkiga bo'linadi va men toshni aynan oxirgi zarba emas, balki oldingi zorbalar yorganini bilaman".

Yuqorida aytiganidek, kitobda amaliy maslahatlar ko'p. Eng muhimni va asosiysi, ijrochi o'zimiz.

**Nasiba ABDULLAYEVA,
"Ijtimoiy-madaniy faoliyat"
ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi**

Yoshlar minbari

Mushoira

Shaydosiman men

Ko'm-ko'k libosiga burkansa bog'lar,
Oppoq libosiga burkansa tog'lar,
Eng shirin kalomni o'rgansa zog'lar,
Sharqona sharmning shaydosiman men,
Shu ko'ngli yarimning shaydosiman men.

Ibo-hayo bo'lsa harir ro'moling,
Guldan go'zal erur, gulgun jamoling,
Netay, mast aylasa bir dona xoling,
Sharqona sharmning shaydosiman men,
Shu ko'ngli yarimning shaydosiman men.

Husni malohatda malaksiyolar,
Majnunni lol etgan o'sha Laylolar,
Jamoli jonimga qilsa imolar,
Sharqona sharmning shaydosiman men,
Shu ko'ngli yarimning shaydosiman men.

Lutfi karamida lazzat ifori,
Bunday go'zal bor-ki, yor iftixori,
Charos ko'zlarida olam bahori,
Sharqona sharmning shaydosiman men,
Shu ko'ngli yarimning shaydosiman men.

Baxtli bo'lar odam, baxt saroyida,
Lolalar lovullab ketar pojida,
Doniyor Mirzo hayron ko'rgan joyida,
Sharqona sharmning shaydosiman men,
Shu ko'ngli yarimning shaydosiman men.



Doniyor MIRZO,
"Teatr san'ati"
mutaxassisligi
2-bosqich
magistranti



Kipriklarining

Ko'zlaringni qirq tulpor,
Qo'riqlaydi ko'zlardan.
Qishda qordan, ayozdan,
Qo'riqlaydi muzlardan.

Kipriklarining ko'zingni,
Ko'zlarimdan to'sadi.
Kipriklarining sehrgar,
Sochingdan tez o'sadi.

Kipriklarining, kiprikmas,
Qaldirg'ochning qanoti.
Yuragimga ko'priksa,
Ko'zlarining g'iroti.


Kipriklarining hayoga,
Ochdi ko'ngil eshigin.
Ko'zing to'lib ziyoga,
Tebratar dil beshigin.

Kipriklarining ko'zingni,
Cho'miltirsma daryoga.
Mayli, menga boqmasa,
Boqsin yorug' dunyoga.



Aziza
NORMURODOVA,
"Kutubxonaxborot faoliyat"
ta'lim yo'nalishi
4-bosqich talabasi





Gul momoga atalgan “LOLAQIZG‘ALDOQ”

– Iye, hojim, tobim yo‘q degandengiz-ku, – dedim u bilan salom-alikdan so‘ng.

– Bir narsa esimga tushib qoldi, kasalimni yig‘ishtirib qo‘yib, mashinaning gazini bosdim. Yig‘ilish tugagandan keyin bir joyga borib kelamiz.

Darhaqiqat, yig‘ilishdan so‘ng va’da bergeniday. A’zamjon hoji mashinasi rulinim Chortoq tomonga burdi. Mashinada u kishining ikki qizi – Nazira va Nasibalar ham bor edi.

– Qayoqqa yo‘l oldik? – deb so‘radim A’zamjon hojidan.

– To‘g‘ri Peshqo‘rg‘onga, Gulchehra opanikiga boramiz. Fursatdan foydalanim opadan “Lolaqizg‘aldoq”ning yozilish tarixini so‘rab-surishtirib, bilib olasiz. Undan so‘ng, baliqli ko‘lni ziyorat qilib, Sulton Uvays Qaraniyning haqlariga ikki kalima Qur‘on o‘qib, ugya qaytamiz.

...Borsak, Guchehra opa uyda ekan. Dasturxon yozdi. Hol-ahvol so‘rashganimizdan so‘ng, opadan “Lolaqizg‘aldoq”ning yozilish tarixi haqida so‘zlab berishimi iltimos qildim. Opa qimtinib, parishon holda “Lolaqizg‘aldoq” haqidagi voqeani so‘zlab berdi:

– Muhammadjon “Tiko”sida avtofalokatga uchrab, Toshketdag travmatologiya shifoxonasida davolanib yotgandi. Men undan xabar olib turish uchun Do‘rmon ijod uyiga joylashgandim. Bir kuni kutilmaganda shifoxona kiyimida hovliqib, qo‘lida bir parcha qog‘oz bilan kirib keldi.

– Ukam, joning og‘rib turganda, bu nima yurish, – deb koyidim uni.

– Men sizga atab she‘r yozgandim, Gul momo, – dedi Muhammadjon. – Shuni o‘qib bergani keldim...

– Shu qadar zururmidi?

– Ha, opa! Ichimga sig‘may ketyapman. Bitta shartim bor, agar yig‘lamasangiz o‘qiman!

– Yig‘latadigan she‘rmi?

– O‘qimi?

– Ha, qani o‘qi-chi...

Muhammadjon jarohatini avaylab, qo‘li-dagi buklangan oq qog‘ozni ochdi-da, she‘rni o‘qiy boshladi:

...Ularni men yana

Ko‘rmanmni-a,

Ayvondan odamdek,

Kuzatolmadim.

Kuz. To‘ylar boshlandi.

Yuragim pora –

Bitta qizimni ham

Uzatolmadim...

Demak, taqdir ekan

To‘y ko‘rmay o‘lmoq,

Lola, lolaginam,

Lolaqizg‘aldoq...

– Shu yerga kelganda, men o‘zimni tuta olmadim, labimni tishladim, ko‘z yoshlarni ichimga yutdim, lekin lovullab yonayotgan olovdan sachrayotgan uchqun kabi dardli satrlar yuragimni ilma-teshik qilib kuydirib boraverdi. Ko‘zimdan tirqirab oqqan yoshni bekitish uchun qo‘llarimni yuzimga bosishim bilan qalbimda ko‘pirib-

toshib turgan tug‘yon tashqariga otlib chiqdi. O‘g‘riq, his-hayajon bilan she‘r o‘qib turgan Muhammadjonning ziyrak nigochlari ham kipriklar ustdida paydo bo‘lgan kil-kil ko‘z yoshlari to‘lqini ortida ko‘rinmay ketgandi...

– Bo‘ldi! – dedi u ingrab o‘rnidan turarkan.

– Bu she‘rni boshqa ko‘rmaysiz, men uni burdalab tashlayman... U shiddat bilan o‘midan turdi-da, bir lahzada ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Ortidan yugurib chiqsam, ostonada aytganiday burdalab, ezbilash tashlangan qog‘oz parchalar sochilib yotardi. Shu-shu Muhammadjon o‘sha she‘r haqida boshqa gapirmadi ham, men eslatmadim ham... Keyinchalik kitobida o‘sha she‘r Shakhat Rahmonga atalib chop etilganidan xabar topganidan so‘ng, hovurimdan tushgandek bo‘ldim.

Lekin Muhammad Yusuf ushbu she‘rni nima uchun aynan Gulchehra opaga bag‘ishlab yozganiga aniqlik kiritish uchun A’zamjon hoji bilan oradan bir necha kun o‘tgandan so‘ng yana Peshqo‘rg‘onga bordik.

2022-yilning 1-yanvar kuni butun umrini o‘qituvchilikka bag‘ishlagan, mahallaning maslakdoshi, katta ro‘zg‘orming boshi Gulchehra opa Turdiquulova yetmish besh yoshni qarshilagan edi. U kishini yo‘qlab, qutlab kelgan qarindoshlar, farzandalar, nabiralar va mehmونlar davrasida gul-gul yayrab o‘tirgan Gulchehra opa behad baxтиyor edi. A’zamjon hoji shundoqqina opaning ro‘parasida turib Muhammad Yusufning “Oddiy muallim” she‘rini yoddan aytib berdi:

– Tuproqdek xokisor bezovta jonlar,

Ammo qanoatda tog‘dek ulug‘vor.

Hatto, Temurdayin Sohibqironlar

Pirim, deb etagin o‘pgan zotlar bor,

Qaysar jahongirga yo‘l ko‘rsatgan kim?

Oddiy muallim-da, oddiy muallim...

Ma‘lum bo‘lishicha, Gulchehra opa Namangan davlat pedagogika oliygohida o‘qib yurgan paytlarida chortoqlik Qanoat Mehmonov bilan tanishib qoladi. Bora-bora ikki talaba o‘rtasida otashin muhabbat paydo bo‘lib, ular bir-birlarini shu qadar sevishgan ekan-ki, butun boshli institut o‘sha davning Romeo va Juliettasi sifatida tanigan ekan ularni.

Dorilfunun atalgan dunyo,

Yuksaltirar bizni kift bo‘lib,

O‘qishga toq kelamiz, ammo

Tugatamiz nekbin juft bo‘lib.

Bitirguncha chopar student,

O‘ziga yor topar student.

“Betakror fasl” nomli she‘rdan olingan yuqoridagi satrlar Qanoat va Gulchehra atab yozilgan edi, deb xotirlagan ukan sevishganlar bilan bir davrda o‘qigan namanganlik hassos shoir Yoqubjon Ahmadjonov.

Ona tili va adabiyot fani fidoyilarini bo‘lgan Qanoat Mehmonov va Gulchehra Turdiquulova mustahkam oila qurib, baxtli hayot kechira boshlashdi. Birin-ketin to‘rt qiz uch o‘g‘il dunyoga keldi. Muhammad Yusuf Namangan oliygohida (zaxirada) o‘qib yurgan kezlarida pochhasinikiga tez-tez borib turardi. Ba‘zida jiyanolari bilan tog‘ yonbag‘irlarida qo‘y boqqan paytlari ham bo‘lgan. Qanoat aka qaynising yozgan she‘rlarini kechki paytlari tinglab, unga baho

berardi. Qalban yaqin bo‘lganliklari uchun bir-birlariga bo‘lgan ishonch, hurmat, mehr ham ortig‘i bilan bor edi ularda. Bir so‘z bilan aytganda, ular tug‘ishgan aka-ukadek bo‘lib qolishgandi.

Afsuski, Qanoat Mehmonov navqiron paytida – qirq uch yoshida bu dunyoni tark etadi. Ayriliq tufayli Gulchehra opaning gulgun chehrasi so‘lg‘in bo‘lib qoladi. Opasining qaddini tik tutib turish uchun ilohiy bir suyanchiq kerak edi o‘shanda. Muhammad Yusuf opasi uchun tog‘ bo‘ldi. Uning har bir yozgan she‘ri xuddi gulga quyilgan obi-hayotdek Gulchehra opaga ruhiy madad, mustahkam iroda va sabot taqdim etardi. Avtofalomat tufayli og‘ir jarohat olib, shifoxonada yotgan chog‘ida ushbu she‘rni rahmatli pochchasi nomidan opasiga bag‘ishlab yozgandi...

Gulim, yaqinroq kel,

Qara, ne savdo,

Bu ajib ishlarni

Dil lavhiga yoz:

Kimga qasr yetmas,

Kimga mol-dunyo,

Menga esa havo

Yetmaydi, xolos.

Tiriklar mudroqda,

O‘liklar uyg‘oq –

Lola, lolajonim,

Lolaqizg‘aldoq...

Hech narsa ayolga sabr, matonat bera olmaydi. Hech narsa ayolni yupata olmaydi. Ayolning o‘zi ulkan sabr sohibasi! Ayolning o‘zi o‘zini yupatadi. Unga bunday buyuk kuchni, matonatni Yaratganning o‘zi hadya etgan. Yetmish besh yoshni qarshilagan, nozikkina, shamol essa tebranib turadigan lolaqizg‘aldoqdek jussaga ega bo‘lgan Gulchehra opaga zimdan nazar solib, o‘pkam to‘ladi. Bu ayol turmush o‘rtog‘i Qanoat akaning, ukasi Muhammad Yusufning tashlab ketganiga chidab, otashin shoir Shakhat Rahmon oilasining qayg‘usiga hamdard bo‘lib yashab kelmoqda ekan.

Shoir she‘rinning hikmatini qarang-ki, birgina “Lolaqizg‘aldoq” uch oilaning qismatiga daxldor bo‘lib turibdi. Gulchehra opa bu she‘da o‘zi va o‘ziga o‘xshagan yuzlab gulchehralarning qismatini ko‘radi. She‘r Muhammad Yusuf tonidan o‘qib berilgan kundan boshlab, opaning ruhiyatiga yozilib qolgan. U yurgan-turgan chog‘ida nimanidir pichirlab yuradi. Ehtimol, o‘sha sirli satrlarini ichida takror-takror aytib yurar:

Buni hayot derlar,

Unutma aslo,

Bir kun ochilasan,

Bir kun so‘lasan.

Qalbimda-ku faqat

Sen eding tanho,

Qabrim ustida ham

O‘zing bo‘tasan.

Sen bizning sevgidan

Xotira – bayrog,

Lola, lolajonim,

Lolaqizg‘aldoq...

Muhiddin OMAD,
shoir

Hayot haqiqatlari va manzaralari

Mehriddin RAHMATOV,
O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan artist

Dilozorlik

Dilozorlikdan qo‘rqaman. Alloh yaratgan mayjudotlar ichida inson aziz va mukarram. Umr o‘lchovli ne‘mat. Umr sahifalarini faqt solih amallarga to‘ldirish kerak. Kimnidir burnini nohaq qonatib, kimnidir dilini vayron qilib yelkamizga gunoh yukini ortmaylik. Bu dunyo aslida yaxshilik uchun yaralgan. Insondon qoladigan ham yaxshilik. Qasos o‘ti bilan yashash makruh illat. Ko‘ngil paxtadek yumshoq, shishadek nozik. Bu ko‘ngilga tosh qadalmas.

Qalb-ko‘ngil Alloh nazargohi! Dilozorlik javobsiz qolmaydi. Shunday ekan, bu besh kunlik dunyoda ezguliklarga, mehr-muhabbatga saxiy bo‘laylik. Kimnidir ko‘ngliga chiroq yoksangiz, umr yo‘llaringiz charog‘on bo‘ladi. Kimgadir bir shingil mehr ulashsangiz, o‘n hissa ajru mukofotini olasiz. Har kuni hech bo‘lmasa, bir marotaba: “Bu dunyo yaxshilik uchun yaralgan”, so‘zini o‘zimiz uchun eslab qo‘yaylik.

Shodiya
ABDUQODIROVA,
O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan artist

Lafz

Insondagi lafz xislatini qadrlayman. Va‘da berdingmi, vafo qil.

Og‘zingdan shu so‘z chiqdimi, amalda bajar.

Dil bilan til bir bo‘lsin ekan.

Hayotim davomida shunday insonlarga duch

kelganman, o‘sha so‘z og‘zidan qayta-qayta chiqadi, lekin amalda axtarib, Xirotda adashib qolasiz. Zabondan jaranglagan so‘z va‘da degani. Va‘da ijrosi bilan go‘zal. Lafzi halollik – azizlik. Ayniqsa, erkak kishiga lafzidan tonish uyat va xunuk holat. Lafzsizlik yolg‘onchilik bilan “jigarjon”. Bunday insonlar ko‘ngildan, ishonchdan tez qoladi. Shuning uchun inson har bir so‘zni tafakkur-idrok “qozoni”da obdon qovurib-pishirib, keyin aytish kerak. Qizig‘i, taqdirmi hal qiladigan so‘zni botir til bilan aytadilar. Amalda esa quyon va yuruk. So‘z bilan qo‘l-oyoq baravar ishlasin ekan. Pok dildan pok so‘zlar tilga ko‘chadi. Lafzi halolning fikri, niyati ham halol. Alloh pokiza qalb bandasini o‘zidan begona qilmaydi.

Ozoda SHOBİLOLOVA tayyorladi

Baliqchi

Bir vaqtlar nochor bir baliqchi daryo bo‘yida ov qilar ekan, juda katta, kuchli bir baliq qarmog‘iga ilindi. Uni tortib olishga baliqchining kuchi yetmas edi. Oxiri baliq qarmoqni tortib ketdi. Buni ko‘rgan boshqa baliqchilar:

– Esiz, ililing shundoq katta baliqni qo‘ldan chiqarding-a, – deyishdi. Shunda baliqchi do‘stlariga:

– Ey do‘stlarim-ey, baliq mening rizqim bo‘lmasa, baliqning esa dunyodan rizqi uzilmagan bo‘lsa, men nima qilay, uning hali bu dunyoda yeyish-ichishdan rizqi bor ekan, – dedi.

Nasiba

Bir kishi do‘stiga qarzga pul beradi. Oradan oylar o‘tib, haligi qarz bergan pulga muhtoj bo‘lib, do‘stining shahriga boradi. Uning eshigini qoqadi. Eshikni ochgan do‘stining xotini eri bir oshnasining uyiga mehmonga ketganini aytadi. Keyin o‘sha manzilga qanday borish yo‘lini tushuntiradi. Kishi yana yo‘lga tushadi. Ketayotib tobut ko‘targan xaloyiqqa duch keladi. Vaqtim yetarli-ku, savob ishga sherik bo‘lay, degan o‘y bilan izdihomga qo‘shilib, qabristonga boradi. Qabriston juda eski ekan. Yangi qabr qazishganda ilgari dafn qilinganlarning suyaklari chiqaveradi. Haligi kishi qabr boshida turib, yonida bir kalla chanog‘i va uning old tishlari orasida yasmiq doniga ko‘zi tushadi. U o‘ylab-netib o‘tirmay, haligi donni oladi-da, og‘ziga soladi. Shunda nuroni bir qariya uning oldiga kelib, so‘raydi:

– Bu yerga nega kelganiningni bilasamni?

– Nega bilmay? Bu shaharga do‘stimni izlab keldim.